Improving The Effective Use Of Local Taxes And Levies In Tashkent City .....	1182
<b>Shahzad Zokhidov</b>	
Совершенствование методологии механизмов налогообложения ресурсного налога .....	1186
<b>Муҳиддинов Талат Шайдулло угли</b>	
Tadbirkorlik faoliyatida investitsiya muhitining xususiyatlari va chet el kapitalining jozibadorligi.....	1189
<b>I. M. Kamoliddinov, To'khtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li</b>	
Kichik biznes tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etish xususiyatlari.....	1194
<b>Abdug'aniyev Murodjon Shavkat o'g'li</b>	
Inson resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish orqali iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish.....	1199
<b>Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li</b>	
Organik qishloq xo'jaligiga o'tishning rivojlanayotgan mamlakatlardagi iqtisodiy va ekologik afzallikkleri.....	1203
<b>Ahrorov Farhod Baxriddinovich</b>	
Korxonalarda uzumchilik mahsulotlarni ishlab chiqarishda strategik boshqarishda mintaqaviy klaster modellashtirishdan foydalanish.....	1208
<b>Muhitdinov Asror Akobirovich</b>	
Qashqadaryo viloyatida ishsizlik darajasini istiqbolda kamaytirish ssenariylari .....	1213
<b>Djumayev Zayniddin Ahmedovich, Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li</b>	
Kam ta'minlangan oilalarda tadbirkorlik faoliyatini o'ziga xos yo'llari va imkoniyatlari .....	1219
<b>Tursunov Nozimjon Nosirovich</b>	
Korxonalar samaradorligini oshirishda soliqlar va soliq siyosatining ahamiyati.....	1223
<b>Saida Yuldasheva</b>	
The Contribution of Ecotourism in Developing Gdp in Uzbekistan .....	1227
<b>Saidova Dildora Nurmatovna, Umarov Husanboy Bahromjon o'g'li, Xolyigitov Umidjon Alijon o'g'li</b>	
Mehmonxonalar faoliyatini moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirishda turizmnинг о'rni .....	1231
<b>Abduraxmanova Ziyoda Abdullayevna</b>	
O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etilishi va undagi asosiy o'zgarishlar tahlili.....	1237
<b>Normurzayev Umid Xolmurzayevich</b>	
Tog' va tog'oldi hududlari qishloq xo'jaligini ixtisoslashtirish va rivojlantirish yo'llari.....	1245
<b>Abdulxayeva Gulshan Maxmudovna</b>	
Правовые основы маркетинговых стратегий акционерных обществ в Республике Узбекистан .....	1250
<b>Эркинов Шахзод Баходир угли</b>	
O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlarining yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish hisobiga budjet daromadlari barqarorligini baholash amaliyoti.....	1254
<b>Ikramov Ravshan Amanbayevich</b>	



# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING YASHIRIN IQTISODIYOT ULUSHINI QISQARTIRISH HISOBIGA BUDJET DAROMADLARI BARQARORLIGINI BAHOLASH AMALIYOTI

**Ikramov Ravshan Amanbayevich**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi  
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi magistranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko'rsatishni yangi bosqichga chiqarish, aholining soliq ma'murchiligi bo'yicha savodxonligini yanada oshirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, teng raqobat sharoitini yaratish va iste'molchilarning huquqlarini kafolatlash hamda yashirin iqtisodiyotni jilovlashda keng jamoatchilikning faol ishtirokini rag'batlantirishga asoslangan ma'murchilikni takomillashtirish yoritilgan. Keyingi yillarda dunyo mamlakatlari qisqa va uzoq muddatli byudjet-soliq siyosatiga oid strategiyasini ishlab chiqishda soliq to'lovchilar tomonidan soliqdan qochish holatlarinin oldini olish va uni kamaytirishning turli xil mexanizmlarini joriy etishga alohida e'tibor bermoqda. Shu bilan birgalikda, noqonuniy moliyaviy oqimlarni kamaytirish, soliq to'lovchilar tomonidan soliqdan qochish holatlarini keltirib chiqaruvchi omillarni tahsil qilish, yashirin iqtisodiyotni kamaytirish orqali soliq to'lashdan bo'yin tov lash jarayonlarining ilmiy-nazariy jihatlariga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarni olib borish ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, sohalar o'rganilib, xorij tajribasi, mamlakatimizda uni qo'llash bo'yicha ilmiy-amaliy xulosa va takliflar shakllantirilgan.

**Kalit so'zlar:** soliq tushumlari, tahlika-tahsil, xavflar, samaradorlik, raqamli platforma, usullar va vositalar, ilg'or axborot-kommunikasiya texnologiyalari, tahsil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

**Abstract:** This article describes the improvement of the administration based on bringing services to business entities to a new level, further increasing the tax administration literacy of the population, supporting entrepreneurship, creating an equal competitive environment and guaranteeing the rights of consumers, and encouraging the active participation of the general public in curbing the underground economy. In recent years, countries around the world have been paying special attention to the implementation of various mechanisms to prevent and reduce tax evasion by taxpayers when developing their short-term and long-term budget-tax policy strategies. At the same time, conducting scientific research aimed at reducing illegal financial flows, analyzing the factors that cause tax evasion by taxpayers, reducing the hidden economy, and focusing on the scientific and theoretical aspects of tax evasion processes remains one of the priorities. At the same time, the fields were studied, foreign experience, scientific-practical conclusions and proposals were formed on its application in our country.

**Key words:** tax revenues, analysis, risks, efficiency, digital platform, methods and tools, advanced information and communication technologies, analysis, optimization, tax benefits, tax rate.



**Аннотация:** В данной статье описано совершенствование администрирования на основе вывода услуг субъектам предпринимательства на новый уровень, дальнейшего повышения грамотности населения в налоговом администрировании, поддержки предпринимательства, создания равной конкурентной среды и обеспечения прав потребителей, поощрения активного участия широкой общественности в сдерживании теневой экономики. В последние годы страны мира при разработке своих краткосрочных и долгосрочных стратегий бюджетно-налоговой политики уделяют особое внимание реализации различных механизмов предотвращения и сокращения уклонения налогоплательщиков от уплаты налогов. При этом одним из приоритетных направлений остается проведение научных исследований, направленных на сокращение незаконных финансовых потоков, анализ факторов, вызывающих уклонение налогоплательщиков от уплаты налогов, сокращение теневой экономики, а также сосредоточение внимания на научно-теоретических аспектах процессов уклонения от уплаты налогов. Одновременно изучались отрасли, формировавшиеся зарубежный опыт, научно-практические выводы и предложения по его применению в нашей стране.

**Ключевые слова:** Практика оценки устойчивости доходов бюджета за счет снижения доли теневой экономики субъектов хозяйствования в Республике Узбекистан.

## KIRISH

Dunyoda moliyaviy oqimlarning notekis harakatida soliq to'lashdan qochishning turli xil yo'llarini izlash va undan soliq to'lovchilar o'z manfaatlari yo'lida foydalanish holatlari tez-tez uchramoqda. Birlashgan millatlar tashkiloti qoshidagi Savdo va taraqqiyot konferensiyasi hisob-kitoblariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlar yiliga 100 milliard AQSh dollarini miqdoridagi moliyaviy resurslarni "foydan o'tkazish" amaliyoti tarzida noqonuniy tarzda boshqa hududlarga o'tkazib, milliy iqtisodiyot doirasida soliqdan qochish holatlarni keltirib chiqarmoqda<sup>1</sup>. Soliq to'lashdan bo'yin tovslashning turli xil ko'rinishlari natijasida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda soliqlarni optimallashtirish sxemalarini qo'llash, soliq to'lovchilar tomonidan olingan foydani samarasiz foydalanish va qayta investitsiyalash natijasida yo'qotilayotgan soliqli tushumlar ham yiliga 250–300 milliard AQSh dollarini tashkil etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Soliqdan qochish va soliqlarni optimallashtirish yo'llari mavzusiga oid qisqacha adabiyotlar sharhini keltiramiz.

S.M.Olennikovning fikricha, soliqdan qochish va soliqlarni optimallashtirish bu soliq to'lovchining rejulashtirgan xatti-harakatlari hisoblanadi<sup>[1]</sup>.

A.Makoveskiy, Ye.A.Zareskaya kabi olimlar soliqdan qochishning eng ko'p qonuniy tarqalgan usullaridan biri bo'lgan soliqlarni optimallashtirish tushunchasiga ham ta'rif berib o'tadi, ya'ni ularning ta'biricha, "Soliqlarni optimallashtirishda soliq to'lovchining maqsadli qonuniy harakatlari, shu jumladan qonun hujjatlarda nazarda tutilgan barcha imtiyozlardan to'liq foydalanish, soliq imtiyozlari va boshqa qonuniy imtiyozlar orqali soliq majburiyatlarini miqdorini kamaytirishni tushunish odatiy holdir. Boshqacha aytganda, bu soliq va jinoyat qonunchiligi normalarini buzmagan holda, qonuniy asoslarda soliq to'lovleri minimal darajaga tushiriladigan xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini tashkil etishdir"<sup>[2]</sup>.

E.Guver "Germaniyada soliqlarni to'lashdan bo'yin tovslash istagi tug'ilish istagidan kuchliroqdir" deganda soliqdan bo'yin tovslashning asosiy ijtimoiy-siyosiy negizini ko'rsatib o'tgan edi<sup>[3]</sup>.

Rossiyalik olima L.Aleksandrova bu boradagi tadqiqotlari natijasida "Soliq to'lovchilar tomonidan soliq to'lashdan bo'yin tovslashning ommaviyligi, soliq jinoyatlarining kechikish darajasining yuqoriligi alohida o'tkirlik bilan ularni ochish muammosini qo'ymoqda, bu faoliyatning maqbul va samarali yo'llari va vositalarini izlash va ishlab chiqish zarurati tug'iladi. Huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatining tahlili shuni ko'rsatadiki, soliqqa oid jinoyatlarni aniqlash boshqa turdag'i jinoyatlarga qaraganda ancha qiyin. Bunday sharoitda soliq jinoyatlarini aniqlash bo'yicha chora-tadbirlarni, shu jumladan sud-tibbiyotni ishlab chiqish ayniqsa muhimdir" deb ta'kidlaydiki, muallif soliqdan bo'yin tovslash jarayonlariga huquqiy baho berish boshqa jinoyatlarga qaraganda anchayin murakkabligiga ishora qiladi<sup>[4]</sup>.

A.R.Abdullina fikricha, soliqdan qochishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarda soliq jinoyatlarini aniqlashda buxgalteriya hujjatlarini tahlil qilishning qiyinchiliklarining mavjudligi, yangi tashkil etilib, tez faoliyatini tugatadigan korxonalarini monitoring qilishda yetarli malakaning kamligi, fuqarolik, iqtisodiy huquqiy hujjatlarini o'zaro integratsiyalash asosida tahlil qilishning qiyinligi, qonun hujjatlarining yetarli takomillashmaganligi oqibatida soliqdan qochish holatlarining huquqiy negiziga asoslangan holda bu jarayonni kamaytirishga qaratilgan harakatlarning samarasiz bo'lishiga ta'sir qilmoqda<sup>[5]</sup>.

1 Организация Объединенных Наций. A/HRC/31/61. Окончательное исследование по вопросу о незаконных финансовых потоках, правах человека и Повестке дня в области устойчивого развития на период до 2030 года международных финансовых обязательств государств для полного осуществления всех прав человека, в частности экономических, социальных и культурных прав.



Ukrainalik olimlar S.A.Makoveskiy, Ye.A.Zareskayalarning fikricha, “soliq to'lashdan bo'yin tovlash yoki soliq solinadigan bazani kamaytirishning ko'plab usullarini tasniflash masalasida ko'plab tadqiqotchilar yagona nuqtai nazarga kelishadi va ikkita guruhni ajratib ko'rsatishadi. Ba'zi manbalarda kulrang sxemalar mavjudligi qayd etilgan. Bunda soliqlarni kamaytirish tartibi qonunlarda belgilangan kamchiliklar, bo'shiqlar yoki noto'g'ri talqinlardan foydalangan holda amalga oshiriladi”<sup>[6]</sup>.

I.Vachugov soliqliidan qochish jarayonini yashirin iqtisodiyotning bo'g'ini sifatida “soliq sohasidagi yashirin iqtisodiyot” tushunchasini ham tushuntirib o'tadi. Uning fikricha, “soliq to'lashdan bo'yin tovlash yashirin iqtisodiyotning bir qismi bo'lib, soliq to'lashdan bo'yin tovlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatish bo'yicha yashirin tuzilmalarning faoliyati bizga “soliq sohasidagi yashirin iqtisodiyot” atamasini kiritish imkonini beradi, uning ta'rifi quydagicha ifodalaniishi mumkin: soliq to'lovchilarning o'zлari ham, soliq to'lashdan bo'yin tovlashni tashkil etish bilan bog'liq faoliyatni ta'minlaydigan xizmatlarni ko'rsatadigan soya tuzilmalari tushuniladi”<sup>[7]</sup>.

## TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Bugungi kunda O'zbekiston soliq tizimida soliqlidan qochish holatlarini aniqlash va baholash holatlarini ko'radigan bo'lsak, u quyidagi usullarda amalga oshirilayotganligini ko'rish mumkin:

Keltirilgan 1-jadval ma'lumotlarida keltirilganidek, Respublikamiz soliq tizimida soliq to'lovchilar tomonidan asosiy holatlardagi soliq to'lashdan qochish holatlarini tahlil qiladigan bo'lsak, uning amaliy ko'rinishlari, asosan, soliq to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tmaslik yoki kech ro'yxatdan o'tish, buxgalteriya hisobini yuritmaslik, “Bir kunlik”, “ko'k sxema” va shu shaklda faoliyat yuritishga moslashish, garchi faoliyati unchalik to'g'ri kelmasada offshor zonalarga kapital kiritish yoki faoliyat yuritish, soliqlidan qochish holatlariga imkon beruvchi kontragentlar bilan iqtisodiy hamkorlik qilish, mahsulot (ish, xizmat)larni tannarxdan past qiymatda sotish va shu kabi asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'layotganligini ta'kidlash mumkin. Qayd etish joizki, soliqqa oid munosabatlarda soliqlidan qochish holatlarini aniqlash va uni baholashni amalga oshirishning juda murakkabligi bu jarayoni tartiblashni qiyinlashtiruvchi omillardan bo'lib qolmoqda. Keyingi yillarda soliqlidan qochish holatlarining amaliy tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, tarmoqlar bo'yicha bu holat eng ko'p uchraydigan tarmoq bu qurilish, savdo va umumiyoq ovqatlanish tarmog'i, alkogol mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarini bo'lib qolmoqda.

**1-jadval: O'zbekiston soliq tizimida soliqlidan qochish holatlarini aniqlash va baholash holatlarining amaliy ko'rinishlari va ularning namoyon bo'lish shakli<sup>2</sup>**

Nº	Soliqlidan qochish holatlarini baholashning amaliy usullari	Amaliy ko'rinishi
1.	Soliq to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tmaslik yoki kech ro'yxatdan o'tish	Soliq to'lovchi sifatida baholash imkoniyati bo'lmaydi
2.	Buxgalteriya hisobini yuritmaslik	Soliq obyekti, soliq bazasi va hisoblangan soliq summalarini noaniq bo'ladi
3.	“Bir kunlik”, “ko'k sxema” va shu shaklda faoliyat yuritishga moslashish	Soliq to'lovchi sifatida baholash imkoniyati mavjud bo'lsada, aslida soliq to'lamaydi
4.	Garchi faoliyati unchalik to'g'ri kelmasada offshor zonalarga kapital kiritish yoki faoliyat yuritish	O'z hududi bo'yicha iqtisodiy faoliyat yuritishi lozim bo'lsada, kapitalni soliqlidan qochish imkoniyat beruvchi hududlarga o'tkazishlishi natijasida soliq to'lovlarini amalga oshirmaydi, asossiz soliq imtiyozlarga ega bo'ladi
5.	Soliqlidan qochish holatlariga imkon beruvchi kontragentlar bilan iqtisodiy hamkorlik qilish	Noqonuni faoliyat olib borayotgan korxonalarning o'zarbo'yicha hamkorlik qilishi oqibati qo'shilgan qiymat zanjirida sun'iy uзilish yuzaga keladi va soliq tushumlari kamayadi
6.	Mahsulot (ish, xizmat)larni tannarxdan past qiymatda sotish	Mahsulotlarni bozor qiymatidan past sotilishi natijasida yalpi tushum kamayishi yuzaga keladi, ammo, soliq to'lovchining umumiyoq iqtisodiy aylanmasiga salbiy ta'siri sezilmaydi, soliq kam to'lash imkoniyati paydo bo'ladi


Jumladan, Soliq qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, “2019- 2022-yillarda qurilish korxonalarini tomonidan tovar aylanma va bajarilgan ishlarni hajmi o'rtacha yildan yilga 15-20 foiz ortib borgan, birou, bu korxonalarda o'rtacha xarajatlar rentabelligi 2021 yildagi 10 foizdan 2022-yilda 3,1 foizga tushgan, faoliyat yuritayotgan 20303 ta korxona 5 mingga yaqinida (24 foizi) hujjatlariga muvofiq rentabellik 0 foizdan past, 12 mingdan ortig'ida (60 foizi) 0 foizdan 1 foizgacha va 904 (4 foiz) kompaniyada 1 foizdan 3 foizgacha rentabellik ko'rsatkichi past bo'lgan, o'z navbatida, 10 mingga yaqin (50 foiz) qurilish korxonalarida 1 nafar ishchi rasmiylashtirilganligi,

<sup>2</sup> Amaliy holatni tahlil qilgan holda muallif ishlanmasi.



haqiqatda ishlaydigan ishchilar soni yashirilayotganligini ko'rsatadi"<sup>3</sup>. Bu korxonalarda soliqdan qochish holatlari olib keluvchi omillar baholanganda quyidagi "turar joy obyektlarini o'ttacha bozor narxidan keskin darajada past narxda realizatsiya qilish, hisobotlarda xarajatlarni sun'iy ravishda oshirib ko'rsatish orqali faoliyatini zarar bilan yakunlash natijasida foyda solig'ini to'lamaslik, jismoniy shaxslar tomonidan qurilish korxonalarini ustav jamg'armasiga yirik miqdorda pul mablag'lari, bino va inshootlar, qurilish mollari (manbasi ko'rsatilmagan holda) kiritish va realizatsiya qilish"<sup>4</sup> kabi holatlар sabab bo'lganligini ko'rish mumkin. Bu holatlarni aniqlashning amaliy holatini quyidagi keltirilgan 1-rasmida tushuntirib o'tamiz.

### Qurilish korxonalarida soliqdan qochish holatlarining baholash usullari



**1-rasm: Qurilish korxonalarida soliqdan qochish holatlarining baholash usullari<sup>5</sup>**

Bularda tashqari soliq tizimi amaliyotida qurilish sohasida soliqdan qochish holatlarini aniqlash va uni baholashda yana bir qator usullar qo'llanildi.

Ular jumlasiga, qurilish texnikalari va transport vositalarini shartnoma tuzmasdan naqd pulga foydalanish (ijara)ga berish holatida soliq organlariga yil yakuni bo'yicha taqdim etilgan moliyaviy hisobotlarda qurilish tex-

3 <https://m.kun.uz/news/2022/06/23/dsq-qurilish-sohasida-soliq-tolashdan-boyin-tovlash-holatlari-haqida-malumot-berdi>, <https://soliq.uz/press-services/news/show/qurilish-sohasida-keng-tarqalgan-soliqdan-qochish--boyin-tovlash-sxemalari>.

4 <https://soliq.uz/press-services/news/show/qurilish-sohasida-keng-tarqalgan-soliqdan-qochish--boyin-tovlash-sxemalari>.


5 Amaldagi tartiblarga asoslangan holda muallif tomonidan tuzilgan.



nikalari va transport vositalari ko'rsatilmagan qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlar olinib, qishloq va shahar qurilish tashkilotlaridan, hokimiyat va boshqa byurtmachilardan olingan bajarilgan qurilish montaj ishlari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan solishtirish hamda aniqlangan tafovutlar bo'yicha tahlillar o'tkazish usuli, belgilangan tartibda shartnoma tuzmasdan qurilish va ta'mirlash ishlarini bajarish hamda naqd pulda hisob-kitob qilish jarayonini aniqlashda soliq organlariga yil yakuni bo'yicha taqdim etilgan moliyavil hisobotlarda qurilish montaj ishlari to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilmagan xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlar olinib, birja, elektron savdo va elektron hisobvaraq-faktura tizimi orqali qurilish mahsulot sotib olgan korxonalar bilan solishtiriladi hamda aniqlangan tafovutlar bo'yicha tahlillar o'tkazish usullaridan foydalaniladi.

Agar, ushbu usullarni qo'llash orqali qurilish korxonalari tomonidan soliqdan qochish holatlarini baholash tahlillari natijalariga e'tibor qaratidigan bo'lsak, oxirgi yillarda 51 ta xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan bajarilgan 452,3 mlrd. so'mlik qurilish montaj ishlari hajmi soliq hisobotda ko'rsatilmasligi natijasida byudjetga 39,2 mlrd. so'm soliq to'lanmasdan qolganligi, 37 ta xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan bajarilgan va ko'rsatilgan 317 mlrd. so'mlik qurilish ishlarini hisobvaraq-fakturalar orqali kirim qilmaganligi natijasida byudjetga 14,6 mlrd. so'm soliq to'lanmasdan qolganligi, o'tkazilgan tezkor tadbirdorda 19 ta xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan tegishli ruxsatnomalarsiz yer qaridan foydalanib, 9 mlrd. so'mlik tuproq, qum, shag'al va xk qazib olayotganligi va byudjetga 1 mlrd. so'm soliq to'lanmasdan qolganligi, 17 ta korxona tomonidan jismoniy shaxslarga sotilgan ko'chmas mulk (uy-joy va noturar obyektlar)ning haqiqiy qiymatini oldi-sotdi shartnoma larida kamaytirib ko'rsatib, byudjetga 9,1 mlrd. so'm kam soliq to'langanligi, 29 ta xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan sotilgan ko'chmas mulk obyektlarining qiymati soliq hisobotlarida kamaytirib ko'rsatilib, byudjetga 9,3 mlrd. so'm soliq to'langanligi aniqlangan, 13 ta xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan qurilish texnikalari va transport vositalari shartnoma tuzmasdan boshqa subyektlarga naqd pulga foydalanish (ijara)ga berilib, tushgan mablag'lar hisobidan byudjetga 402 mln. so'mlik soliqlar to'lanmaganligi, 14 ta xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan shartnoma tuzmasdan qurilish va ta'mirlash ishlarini bajarilib, 21,4 mlrd. so'mlik qurilish ishlari yashirilishi natijasida byudjetga 2,6 mlrd. so'm soliq to'lanmasdan qolganligi aniqlangan.

### Turar joy obyektlarini bozor narxidan past realizatsiya qilish orqali soliqdan qochish sxemasi




**2-rasm:** Turar joy obyektlarini bozor narxidan past realizatsiya qilish orqali soliqdan qochish sxemasi<sup>6</sup>

2-rasm ma'lumotlaridan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, turar joy obyektlarini bozor narxidan past realizatsiya qilish orqali soliqdan qochish sxemasi afsuski respublikamiz qurilish korxonalarida yuqorida keltirilgan 5 ta ko'rinish (holat) doirasida yuz bermoqda. Ushbu sxema asnosida birgina 2021-yil natijalariga ko'ra, turar joy obyektlarini bozor narxidan past realizatsiya qilish holatlari bo'yicha 159 ta korxona tomonidan qiymati 1 trln. so'mlik 2 158 ta obyektlar 1kv.m uchun 1-5 mln.gacha narxlar oralig'ida sotilgan. Shundan, 1 mln.so'mgacha 60 ta, 1-3 mln.so'm oralig'ida 443 ta obyektlar sotilgan. Misol uchun, "XXX" MChJ tomonidan Uchtepa tumanida qurilgan yangi qo'pqavatli turar joy majmuasidan 26 ta kvartira o'rtacha 1,8 mln.so'mdan sotilgan.

6 Muallif tomonidan tuzilgan.



Soliqdan qochish holatlarini aniqlash va baholashning dunyo amaliyoti va respublikamiz soliq tizimida ham ishlab chiqarish sohasidagi jarayon o'ta muhim sanaladiki, uni quyidagi 3-rasmda aks ettiramiz. Keltirilgan 3-rasmdagidan tashqari ishlab chiqarish sohasida soliqdan qochish holatlarini keltirib chiqaruvchi omillar sifatida ularni aniqlashda yana bir qator iqtisodiy jarayonlarni ham aniqlash zarur bo'ladi. Ular jumlasiga, eksport qilingan mahsulotlar hajmini oshirib ko'rsatishda: bojxona boshqarmasidan xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan eksport qilingan mahsulotlar to'g'risidagi ma'lumotlar olinib, ushbu korxona tomonidan soliq hisobotlarida ko'rsatilgan ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotlar hajmi bilan solishtirish, tugallanmagan qurilish obyektlari va belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalarini yashirishda: mahalliy hokimiyatlar tarkibidagi Arxitektura bo'lidan tugallanmagan qurilish obyektlari to'g'risidagi ma'lumotlar hamda bojxona organlaridan xorijiy mamlakatlardan olib kelingan asbob-uskunalar to'g'risidagi ma'lumotlar olinib, alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqarish uchun foydalanilgan suv hajmini yashirishda: suv resurslari hisobini yurituvchi tashkilotlardan alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqaruvchi korxonalariga o'chov asboblari orqali sotilgan suv hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar olinib, ushbu korxonalar tomonidan soliq organlariga taqdim etilgan moliyaviy hisobotlarda ko'rsatilgan suv hajmi bilan solishtirish orqali aniqlanadi.



**3-rasm: Ishlab chiqarish sohasida soliqdan qochish holatlarini aniqlash tartibi<sup>7</sup>**

7 Muallif tomonidan tuzilgan.



Soliqdan qochish holatlarini aniqlash va baholashning eng muhim usullari qatoriga “offshorni baholash usuli” bo‘lib, bu keyingi vaqtarda keng qo‘llanilib kelinmoqda. Ma‘lumki, Offshor bu qulay soliq sharoitiga ega davlatda xorijiy fuqaro tomonidan qayddan o‘tgan, ushbu mamlakatda faol ish yuritmaydigan firma bo‘lib, offshor kompaniyasi bu – korxonalarning alohida tashkiliy yuridik shaxs maqomini tavsiflovchi termindir. Bu maqom unga soliq to‘lovlarni maksimal darajada tushirishni ta’minlaydi (ko‘p hollarda nolgacha). Professor X.Abulqosimovning ta’kidlashicha, “kompaniyalarning offshor maqomi ularga o‘z faoliyatlarini davomida soliqlarni maksimal darajadan tushirishni, hatto yuq qilish, ya’ni butunlay soliqlardan ozod bo‘lishni ta’minlaydi. Faqatgina bu maqom talabi, biznes operatsiyalarini o‘z qonunchiligidan tashqarida olib borishni talab qiladi. Ya’ni offshor kompaniyasi o‘z qonunchiligini rezidenti bo‘la olmaydi”<sup>8</sup>. Ma‘lumki, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 181 - moddaasida nazorat qilinadigan tashqi savdo bitimlari tartibi keltirilgan bo‘lib, unga ko‘ra, jahon birja savdosi tovarlarining tashqi savdosi sohasidagi bitimlar va taraflaridan birining ro‘yxatdan o‘tkazilish joyi, yashash joyi yoki soliq rezidentligi joyi ofshor yurisdiksiya bo‘lgan shaxs hisoblanadigan bitimlar nazorat qilinadigan bitimlar deb yuritiladi. Mazkur moddaga muvofiq, “agar bunda O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxsining faoliyati ofshor yurisdiksiyada doimiy muassasani tashkil etsa va nazorat qilinadigan bitim ushbu faoliyat bilan bog‘liq bo‘lsa, ushbu bitim qismida mazkur yuridik shaxsga ro‘yxatdan o‘tkazilish joyi ushbu ofshor yurisdiksiya bo‘lgan shaxs sifatida qaraladi. Shuningdek, soliq solish bo‘yicha imtiyozli rejimni taqdim etadigan va (yoki) moliyaviy operatsiyalarini amalga oshirishda axborotni oshkor etishni hamda taqdim etishni nazarda tutmaydigan davlatlar va hududlar ofshor yurisdiksiyalar deb e’tirof etiladi”<sup>9</sup>.

Yuqorida tahlillardan xulosa qilish mumkinki, iqtisodiy munosabatlар doirasida zimmalariga soliq to‘lash majburiyati yuklatilgan soliq to‘lovchilarining iqtisodiy hatti-harakatlari asnosida soliq to‘lashdan qochish holatlarini aniqlash bu munosabatlarni oldini olishda uslubiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Buning uchun esa, yuqorida keltirib o‘tilgan uni aniqlash va baholash usullaridan keng foydalanish o‘z samarasini berish mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Eksport tushumlarini xorijiy banklardagi hisoblari orqali amalga oshirish, shuningdek QQS qaytarish bo‘yicha xorijiy banklarga kelib tushgan mablag‘larni ham hisoblash tizimi joriy etish. Yakka tartibdagи tadbirdorlar (jismoniy shaxslar)ga chet eldan investitsiya kiritish maqsadida xorijiy valyutada yuborilgan mablag‘larni soliqdan ozod qilish bo‘yicha qonunchilikka o‘zgartirish kiritish. Tekshiruvlar o‘tkazish bo‘yicha yilning ma‘lum bir aniq davrni belgilash va bir xo‘jalik subyektini tekshirish davriyligini belgilash bo‘yicha yangi tizim ishlab chiqish. Xo‘jalik subyekti vakillari tomonidan to‘g‘ri va sifatli rejalashtirish va samaradorligini amalga oshirish imkonini beradi.

### Adabiyotlar/Literatura/Reference:

1. S.M.Olennikov. Kvalifikatsiya ukloneniya ot uplatы nalogov po obyektivnym priznakam sostava prestupleniya. // Yuridicheskaya otvetstvennost i otvetstvennye yuristy. 2017. №4. S.37-42.
2. S.A.Makoveskiy, Ye.A. Zareskaya. Uklonenie ot uplatы nalogov: osobennosti prestupleniya i nakazaniya. Vestnik instituta ekonomicheskix issledovanii 2017, № 3(7) 156.
3. Kottke K. “Gryaznye” den‘gi – chto ehto takoe? Spravochnik po nalogovomu zakonodatel’stu v oblasti “gryaznyh” deneg. M., 1998.
4. L.I. Aleksandrova. Osnovnye osobennosti i problemy vyiyavleniya ukloneniya ot uplatы nalogov. // Aktualnye problemy pravovogo regulirovaniya. 2017. S.2.
5. Abdullina A.R. Predstavitelei kak subyekty ukloneniya ot uplatы nalogov s organizatsii // Nauchnaya perspektiva. 2016. № 10. S. 37-38..
6. S.A.Makoveskiy, Ye.A. Zareskaya. Uklonenie ot uplatы nalogov: osobennosti prestupleniya i nakazaniya. Vestnik instituta ekonomicheskix issledovanii 2017, № 3(7) 156.
7. Vachugov I.V. — Uklonenie ot uplatы nalogov, kak sostavlyayushchaia tenevoy ekonomiki: rost ili sokращение? // Nalogi i nalogoblojenie. – 2019. – № 6. – S. 42.
8. F.B.Axmedov Soliq to‘lashdan qochish xavflarini aniqlashda zamonaviy fiskal nazorati takomillashtirish: (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. – Toshkent, 2023.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasi ma‘lumotlari. www.soliq.uz.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktyabrdagi PF-6098-son farmoni.
11. O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi <https://lex.uz/docs/4674902>
12. Normurzayev U. O‘zbekistonda soliq siyosatini takomillashtirishda hududlararo soliq inspeksiyasi o‘rni va ahamiyati // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2024. – T. 2. – №. 4. – S. 457-467.
13. Normurzayev U. O‘zbekistonda soliq siyosatini takomillashtirish va uning barqarorligini ta’minalash yo’llari // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2023. – T. 1. – №. 6. – S. 177-182.
14. Normurzayev U. O‘zbekistonda soliq siyosatini takomillashtirish bo‘yicha tahlil va taklif //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2023. – T. 1. – №. 7. – S. 329-336.
15. Normurzayev U. “Mamlakatimizda soliq tizimida amalga oshirilgan islohotlar tahlili.” Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil 1.4 (2023): 177-183.

8 X.Abulqosimov. “soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlassh” mavzusi bo‘yicha taqdimot.

9 O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi soliq Kodeksi. 2019-yil. 181-moddasi.

# Yashi

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 4**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

**Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

